Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Bauer L. Introducing linguistic morphology (2nd ed.). Edinburgh: Edinburgh University Press, 2003.

(2). Haspelmath M.&Sims A.D. Understanding morphology (2nd ed.). London, Hodder Education, 2010.

(3). O’Grady W., Dobrovolsky M., & Katamba F. Contemporary linguistics: An introduction. London, Longman, 1996; Katamba F. Morphology. New York, St. Martin’s Press, 1993.

(4). Мадвалиев А.Р. Узбекская химическая терминология и вопросы его нормализации. Дисс.....канд. филолог.наук, Ташкент, 1986.

(5). Sadinova N. O‘zbek tili ish yuritish terminologiyasi. Filol.f.b.f.d. diss., Toshkent, 2020.

(6). Садыкова А.Г. Система субстантивного словосложения в тюркских и германских языках в сравнительно-типологическом аспекте. Дисс.....доктора филолог. наук, Казань, 2002, с. 71–72.

(7). Yuldashev I.J. O‘zbek kitobatchilik terminologiyasi: shakllanishi, taraqqiyoti va tartibga solish. Filol. fan. d-ri... diss. avtoref., Toshkent, 2005.

(8). Аржанценва Н.В. Сложные слова со вторым компонентом-отглагольным существительным в немецком и английском языках и их соответствия в русском языке. Дисс.канд.филол.наук, Казань, 2004, 214 с.

(9). Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. Изд-е 2-е, перераб., М., “Флинта”, “Наука”, 2012, 376 с.

(10). Гринёв-Гриневич С.В. Терминоведение. Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений, М., Издательский центр «Академия», 2008, 304 с.

(11). Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. Изд-е 3-е. М., Издательство ЛКИ, 2007.

(12). Лотте Д.С. Очередные задачи технической терминологии // Известия Академии наук СССР, М., “Наука”, 1931, с. 889.

(13). Маковей Р.Г. Интерпретация сложных слов в науке. “Вестник Харьковского национального автомобильнодорожного университета”, 2007, № 39, с. 15–17.

(14). Михайлова К.В. Особенности формирования физической терминологии в английском и русском языках: на примере лексико-семантического поля «физика элементарных частиц». Дисс. канд.филол.наук, Казань, 2008, 205 с.

(15). Реформатский А.А. Введение в языкознание. М., “Высшая школа”, 1982, 324 с.

(16). Чунтомова Ю.А. Английская транспортная терминология. Автореф. канд.филол.наук, Москва, 2004, –17 с.

Avazberdiyeva Bahora Alijon qizi (Navoiy davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi; bahoraavazberdiyeva@gmail.com; ORCID: https://orcid.org/0009-0009-3107-6570)

O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA SHAXS NOMLARINING QO‘LLANISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek xalq maqollarida uchraydigan shaxs nomlari hamda ularning semantik ma’no ko‘lami va lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida shaxs nomlari nafaqat insonni, balki ijtimoiy holat va tarixiy tasavvurni ifodalovchi vosita sifatida xizmat qilishi aniqlandi.*

Kalit so‘zlar: *maqol, shaxs nomi, folklor, semantika, lingvokulturologiya.*

Авазбердиева Бахора Алижон кизи (студентка направления «Узбекский язык и литература» Навоийский государственный университет; bahoraavazberdiyeva@gmail.com; ORCID: https://orcid.org/0009-0009-3107-6570)

УПОТРЕБЛЕНИЕ ЛИЧНЫХ ИМЕН В УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦАХ

Аннотация. *В данной статье анализируются личные имена, встречающиеся в узбекских народных пословицах, а также их семантический диапазон и лингвокультурологические особенности. В ходе исследования было установлено, что личные имена выступают не только средством обозначения человека, но и служат языковым средством выражения социального положения и исторического представления.*

Ключевые слова: *пословица, личное имя, фольклор, семантика, лингвокультурология.*

Avazberdiyeva Bahora Alijon qizi (Student of the Uzbek Language and Literature program at Navoiy State University; bahoraavazberdiyeva@gmail.com; ORCID: https://orcid.org/0009-0009-3107-6570)

THE USE OF PERSONAL NAMES IN UZBEK FOLK PROVERBS

Annotation. *This article analyzes personal names found in Uzbek folk proverbs, as well as their semantic range and linguocultural characteristics. The study revealed that personal names function not only as a means of identifying a person, but also as a linguistic device expressing social status and historical perception.*

Keywords: *proverb, personal name, folklore, semantics, linguoculturology.*

Kirish. O‘zbek xalq maqollari insonlarning asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasi, fikrlashi, dunyoqarashi, axloqiy va madaniy an’analari hamda xalq donishmandligining namunasidir. Bu haqida yozar ekan, sharqshunos olim Vamberi sahro farzandi bo‘lgan bir yigitning “otalar so‘zi”ni tinglashini o‘z asarida quyidagicha qayd etadi: “Maqol ma’nosiga zid bo‘lgan oqilona gap, hech qanday inontiruvchi so‘z uning fikriga ta’sir qila olmaydi, uning tabiatidagi tug‘ma mutaassiblik hech narsaga ajdodlar va ular qoldirgan hikmatlarning donolik bilan aytilganiga, noto‘g‘ri aytilmaganiga astoydil, qattiq ishonchidan boshqa hech bir narsada bunchalik kuchli tarzda namoyon bo‘lmaydi” [1;323–324-b.]. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rishimiz mumkinki, inson fikrining jo‘yali, ilmoqli va mazmunli chiqishi bevosita maqollarga bog‘liqdir. Insonlar estetik tafakkurini aniqlashda ham maqollarnig o‘rni beqiyos hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Maqollarda turli ramziy obrazlar, til birliklari, badiiy vositalardan foydalaniladi. Bundan tashqari, xalqimiz ijodiyotida shunday maqollar borki, ularda qahramonlar, tarixiy shaxslar, odatiy ismlarni uchratishimiz mumkin. Bunday holat aruzdagi nazmiy asarlarimizda talmeh san’atini eslatgandek bo‘ladi. Ammo ayrim jihatlar ham ko‘zga tashlanadiki, unday xususiyatlarni talmeh san’atida uchratmaymiz. Masalan, maqollarimizda shunchaki oddiy va odatiy ismlar ham qo‘llanadi, g‘azallarda esa bunday emas. Maqollarda shaxs nomlari bir necha vazifalarda kelishi mumkin:

1) umumlashtirish vazifasi.

Shaxs nomlari orqali ma’lum bir jamiyatdagi toifa yoki xarakter tarixiy va mifologik sayyor obrazlar orqali umumlashtiriladi:

Boy bo‘lsang – Iskandardek bo‘l,

Donolik bo‘lsang – Luqmondek.

Bunda, odatda, sharq adabiyotida bo‘lganidek, Iskandar boylik va qudratga, Luqmon esa donolik, oqillikka ega insonlar timsoli sifatida birlashtirilgan;

2) ramziy ma’no ifodalash vazifasi.

Ba’zi nomlar esa xalq hayotida diniy shaxslar bilan bog‘liq holda ramziy ma’no ifodalaydi:

Har ko‘ngilda bir Xizr bo‘ladi.

Yuqoridagi maqolda Xizr nomi inson qalbidagi tantilik, yaxshilik, madad ramzi sifatida qo‘llangan.

3) majoziy ifodalarni shakllantirish vazifasi;

Xalqimiz ijodiyotida shunday maqollar ham uchraydiki, ularda kirish qismida aytilganidek oddiy shaxslar nomi orqali obrazlilik kuchaytiriladi:

Ahmadning oshiga Hasan ham sherik.

Mazkur maqoldagi Ahmad va Hasan qandaydir tarixiy shaxslar emas, ular ijtimoiy munosabatlarni ifodalagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ilmiy maqolani yozish davomida o‘zbek xalq maqollari to‘plamlari, paremiologik lug‘atlar, folklor namunalaridan tadqiqot manbasi sifatida foydalanildi. 150 dan ortiq maqollar va ularning ma’no ko‘lami bilan tanishib chiqildi. Maqollar, asosan, frazeologiya bo‘limining bir qismi bo‘lgan paremiologiya bo‘limida ham o‘rganiladi. “Paremiologiya (qadimgi yunoncha παροιμία paroimia – masal, maqol va λόγος logos–so‘z, ta’limot so‘zlaridan olingan) – frazeologiyaning kichik bo‘limi, filologiyaning paremiyalarni – maqollar, maqollarga qarshi iboralar, maqollar, iboralar, shiorlar, aforizmlar, topishmoqlar, belgilar va boshqa maqollarni o‘rganish va tasniflashga bag‘ishlangan bo‘limi bo‘lib, uning asosiy maqsadi guruh, xalq va boshqalarning hayot tajribasiga asoslangan an’anaviy qadriyatlar va qarashlarni qisqa majoziy og‘zaki ifodalashdir” [7;236-b.]. Shu bilan birgalikda, quyidagi tahlil metodlaridan foydalanildi:

1.Tavsifiy metod: shaxs nomlari qatnashgan maqollar tavsif etildi.

2. Semantik tahlil. Shaxs nomlarining maqol ma’no ko‘lamidagi yuklamasi o‘rganildi.

3. Lingvokulturologik metod. Nomlarning o‘zbek milliy madaniyati bilan bog‘liq jihatlari tahlil qilindi.

Tahlil davomida maqollardagi shaxs nomlarining hayotiy, diniy yoki afsonaviy obraz ekanligiga ko‘ra, shartli tarzda, 4 ga bo‘lish mumkin:

1. Tarixiy shaxslar nomlari. Bunda haqiqiy hayotda yashagan, o‘zining ezgu ishlari bilan xalq qalbidan joy egallagan, saxiy, odil, zukko, sabrli insonlarning vafotidan keyin necha asrlar o‘tsa-da, hanuz unutilmayotganini, ularning nomlari qatnashgan maqollarda ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Amir Temur, No‘shiravon, Iskandar va boshqalar. Amir Temurning adolatli va tadbirli davlat rahbari bo‘lganligini ifodalovchi quyidagi maqol fikrimiz dalilidir: “Temurning tuzumi – elning huzuri”.

2. Diniy shaxslar nomlari. Maqollarda diniy shaxslar nomlari ko‘p ishlatiladi. Bu nafaqat xalq e’tiqodining ifodasi sifatida, balki axloqiy ideal sifatida xizmat qiladi. Ularda, asosan, ulardagi yetuk va

ulug‘ fazilatlarga urg‘u beriladi. Masalan, Yusufning go‘zalligi, Sulaymonning adolati, Ayyubning sabri va boshqalar: “Yusufning husni bor, Ayyubning sabri bor”.

3. Afsonaviy shaxs nomlari. Xalq og‘zaki ijodida mifologik obrazlarning ham o‘rni katta hisoblanadi. Ular faqatgina dostonlarda muhim ahamiyat kasb etib qolmay maqollarda ham muhim. Afsonaviy qahramonlar ko‘proq sevgi, jasorat, fidoyilik, mehnatsevarlik, tantilik kabi fazilatlarni aks ettiradi. Masalan, Rustamning va Go‘ro‘g‘lining qahramonligi, kuchi, vazir Ayozning aql-zakovati, Afandining topqirligi, Layli va Majnun, Tohir-u Zuhraning muhabbati ko‘p maqollarda uchraydi: “Majnun bo‘lmagan Layliga yetmas”.

4. Oddiy xalqona nomlarning qo‘llanishi. Maqollarda juda ko‘p ismlar uchraydi. Lekin ularning alohida ma’no ko‘lami mavjud emas. Ular maqollarda shunchaki umumlashgan inson tipi vazifasini bajaradi. Masalan: “Ali aytganini qiladi, Vali qilganini aytadi”. Bu maqolda ham kundalik ijtimoiy hayot yoritilgan, ya’ni Ali amaliy inson, u barcha ishlarini o‘z o‘rnida bajaradi, Vali maqtanchoq ekanligi ko‘rinadi. Maqolda bir tovush bilan farq qiluvchi Ali vaVali ismlarining qo‘llanilishi tovush uyg‘unligini, ritm va qofiyani ta’minlagan.

Tahlil va natijalar. Maqollarni tahlil qilish davomida kuzatilganidek, shaxs nomlari bir necha vazifalarni bajargan. Semantik vazifasi orqali nomlarda mujassamlashgan fazilatlar, xarakteri va tarixiy obrazligi ko‘rsatilgan. Yusuf – go‘zallik, Ayyub sabr timsoli bo‘lib xizmat qilgan. Bundan tashqari, odatiy ismlar ham ritmik ohangdoshlik hosil qilgan bu esa maqollarning eslab qolinishini va tildan tilga ko‘chishini osonlashtirgan. Masalan, yuqorida ta’kidlaganimizdek, Ali bilan Vali va boshqalar. Ahmad, Hasan kabi xalq o‘rtasida keng qo‘llanadigan ismlar oson tildan tilga ko‘chgan.

Lingvokulturologik jihatdan esa maqollar o‘zbek xalqining diniy qarashlarini, tarixiy xotiralarini, jamiyatdagi axloqiy me’yorlarni ham mujassamlashtirgan. Bu esa insonlarni o‘z-o‘zidan sabrli va adolatli bo‘lishga, mehnat qilishga, sabr-sadoqatga, umuman, turmushning barcha jihatlarini qamrab olgan “oltin so‘zlar”ga amal qilishga chorlagan. “Otalar so‘zi” sanalmish maqollarimiz bunday ma’no ko‘lamiga ega bo‘lishi uchun uzoq yillar semantik jihatdan mazmunliroq va hayotda o‘rinliroq bo‘lib boravergan. Asrlar davomida yoshi ulug‘ insonlarning pand-nasihatlari vositasida yoshlar qalbiga singdirilgan. Shunday ekan, o‘zbek xalq maqollarida qo‘llangan shaxs nomlari ma’noni chuqurroq anglash va tarixdan oz bo‘lsa-da xabardor bo‘lishga yordam bergan.

Xulosa va takliflar. Ushbu maqolani yozish davomida o‘tkazilgan izlanishlar jarayonida o‘zbek xalq maqollarida shaxs nomlari keng qo‘llanishiga ishonch hosil qilindi. Shaxs nomlari shunchaki qo‘llangan emas, ularda xalq tafakkuri va milliy qadriyatlarining muhim ifoda vositasi bo‘lib xizmat qilayotganini hamda muhim ifoda va nutqiy vosita ekanligini ko‘rsatdi. Shaxs nomlari tarixiy, diniy, afsonaviy va oddiy xalq ismlari shaklida qo‘llanishi aniqlandi. Bu shaxs nomlarining har bir turi o‘ziga xos vazifani bajarishining dalilidir. Shuning uchun, unutmasligimiz kerakki, maqollar nafaqat pandnoma, nasihatnoma, balki asrlar osha tariximizdan, milliyligimizdan sado berguvchi xalqimiz zakovatining o‘lmas va o‘chmas yodgorliklaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Вамбери Г. Очерки Средней Азии. М., 1868.
[2]. T.Mirzayev, A.Musoqulov, B,Sarimsoqov. O‘zbek xalq maqollari. T., 2005.
[3]. Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov. Hikmatnoma. T., 1990.
[4]. В.Виноградов. Лексикология и фразеология русского языка. Москва, “Наука”, 1977.
[5]. W.Mieder. Proverbs: A Handbook. Westport: Greenwood Press, 2004.
[6]. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildlik, T., 2022.
[7]. Permyakov G.L. Strukturaviy paremiologiya asoslari. M., “Nauka”, 1988 (Sharq folklori va mifologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar).

Shoira Usmanova (filologiya fanlari doktori, Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti professori;
E-mail: usmanovashoira89@gmail.com; Orcid: 0009-0005-2608-4577),
Shamsiyeva Shoxistaxon (PhD, Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti dotsenti;
E-mail: shoxistaxon.shamsiyeva@gmail.com; Orcid: 0000-0001-5734-9957)

LISONIY ASSOTSIATSIYALARDA ERKAK VA AYOL HAQIDAGI TASAVVURLARNING AKS ETISHI

Annotatsiya. *Bugungi kunda dunyo tilshunosligida “insonning tashqi olam haqidagi bilim va tasavvurlarining tilda voqelanishi masalasi”ning tadqiqiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, inson tasavvurlarini tilda aks ettiruvchi lisoniy assotsiatsiyalar mohiyatini ochib berish, assotsiatsiyalarni yuzaga*